

Fanlar akademiyasining ijtimoiy tarmoqlarda tarqalgan Seysmologiya institutiga oid xabarlarga izohi



Seysmologiya instituti yangi binoga ko'chmagan va Zulfiyaxonim ko'chasi, 3-uyda joylashgan. Seysmologiya instituti binosi kapital ta'mirlanib, 13 milliard so'mlik zamonaviy asbob-uskunalar xarid qilindi, yangi laboratoriyalar tashkil etildi. Eski quduqlardan birining o'rniga chuqurligi 60 m, 150 m, 200 m, 250 m, 560 m bo'lgan yangi quduqlar qazilgan.

Fanlar akademiyasi ommaviy axborot vositalaridan tekshirilmagan ma'lumotlardan foydalanmaslikni so'raydi va xolis ma'lumotlarga ega bo'lish uchun sizlarni Seysmologiya institutiga tashrif buyurib, olib borilayotgan ilmiy izlanishlar bilan yaqindan tanishishga taklif qilamiz. Shuningdek, institut haqidagi to'liq ma'lumotlarni Seysmologiya institutining www.seismos.uz sayti orqali ham olishingiz mumkin.